

ERKIN A'ZAM IJODIGA BIR NAZAR

Tursunova Sojidxon Axmadjon qizi

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Erkin A'zam o'z asarlari bilan adabiyotimiz tarixida chuqur iz qoldirgan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Uning asarlari ko'plab ilm ahlining qiziqishlariga sabab bo'lgan, albatta, tilshunos olimlarimiz ham bundan mustasno emas. Har bir asar – bu matndir. Badiiy matnning til xususiyatlari ijodkorning mahoratidan darak berib turadi. Ushbu maqolada adib ijodining til nuqtai nazaridan o'rganilishi borasida gap boradi. Shu bilan bir qatorda, asarlarida uchraydigan kinoya va uning turlari haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kinoya, sarkazm, beozor kinoya, yumoristik kinoya, romantik kinoya va boshqalar.

Annotation: Erkin A'zam is one of the creators who left a deep mark in the history of our literature with his works. His works have attracted the interest of many scientists, of course, our linguists are no exception. Every work is a text. The language features of the artistic text indicate the skill of the creator. This article deals with the study of literary works from the point of view of language. In addition, information about irony and its types found in his works is also given.

Keywords: sarcasm, sarcasm, lighthearted sarcasm, humorous sarcasm, romantic sarcasm, etc.

O'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan bo'lmish Erkin A'zam ijodi bitta roman, 15 ga yaqin qissa va kinoqissalar, 5 dona drama, 40 dan ziyod hikoyalar, 50 ga yaqin esselardan iborat. Ijodkorning asarlari ko'plab ilm ahlining e'tiborini tortgani bejiz emas, albatta. Bu ilmiy ishlar tilshunoslik va adabiyotshunoslik rivojiga xizmat qilmoqda. Ijodkorning "Ertak bilan xayrlashuv" to'plamiga jamlangan qissalar, hikoyalar motivini aynan bolalik xotirlari, bola nigohi bilan kuzatilgan, bola qalbi bilan his etilgan voqealar tashkil etadi. Asar qahramonlari nutqida ham o'zgacha so'zlar qo'llanilishining guvohi bo'lamiz. Bu matnlar ironiyaning ko'plab turlari qo'llanilganligi bilan ham qimmatlidir. Yozuvchi "Javob" qissasida ironiyaning diologizm, absurd kayfiyat, o'z-o'zini kinoya qilish (samoironiya), kesatiq, piching, o'z-o'zini tahlil qilish (samoanaliz) singari badiiy shartlilik usullaridan mahorat bilan foydalanadi. Asarda kinoyaning ikki xil turi istifoda etilgan, birinchisi, muallif kinoyasi, ikkinchisi qahramon kinoyasidir. Adib "Shoirning to'yi", "Chapaklar va chalpapaklar", "Guli-guli" asarlarida kinoyaning o'tkir formasi – sarkazmni qo'llagan. Adib qator hikoya va qissalarida kinoyaning badiiy-g'oyaviy jihatdan turfa ma'nolaridan mahorat bilan foydalanadi.

H.Boltaboyev ("O'z so'zini izlab..." maqolasida), U.Normatov, N.Xudoyberganov, R.Otayev ("Dilrabo qo'shiqlar aytilaversin" maqolasida), N.Shukurov va I.Hasanov, O.Tog'ayev, N.Vladimirova kabilarning tadqiqotlarida Erkin A'zamning ilk ijodi haqida munosabat bildirilgan.

Keying yillarda Erkin A'zam ijodi haqida adabiyotshunosligimizda Y.Solijonov, I.Haqqul, Q.Yo'ldoshev, Sh.Rizayev, M.Qarshiboy, S.To'laganova, G.Sattorova, P.Kenjayeve, Sh.Murodov, B.Yoriyev, N.Yo'ldoshev, D.Saydaxmatova, O.Pardayev, B.Mo'minov, M.Berdimurodova, A.Saidovlarning maqola va taqrizlari e'lon qilindi. Shuningdek,

A.Xolmurodov va M.Sheraliyevaning dissertatsiyalarida Erkin A'zam ijodi material, tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan.¹

Erkin A'zam asarlari o'zbek tilshunosligining ham diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Buning sababi esa uning asarlarida o'zbek tilining boy va serjilo tovlanishi, xalqona so'z, ibora, qochirim, matal, maqol, aforizmlarga boyligi va boshqalar bilan izohlash mumkin. O'zbek tilshunosligida N.Mahmudov, Y.Odilov, D.Andaniyozova, Sh.Toshxo'jayeva, Z.Umurqulov kabilarning tadqiqotlarida Erkin A'zam asarlari turli aspektlarda o'rganilgan.²

Rofiyeva Gulasal Yusubjonovning "O'zbek tilida fransuz tiliga konseptual metaforalar tarjimasining o'ziga xos sususiyatlari (Erkin A'zam asarlari asosida)", Shofiyev Obidjon Baxtiyorovichning "Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz)" kabi dissertatsiyalar ham shular jumlasidandir.

M.Qo'chqorova esa adib nasridagi kinoyaviy badiiy shartlilikni quyidagicha tasniflab o'rganadi:

1. Beozor kinoya: "Anoyining jaydari olmasi", "Ta'ziya", "Navoiyni o'qigan bolalar", "Qiyofadosh" (hikoyalar).
2. Zaharxanda kinoya va sarkazm: "Shovqin" (roman), "Shoirning to'yi", "Chapaklar va chalpaklar mamlakati", "Guli-guli" (qissalar), "Aralashqo'rg'on", "Yozuvchi" (hikoyalar), "Farrosh kampirning tushi" (drama).
3. Quvnoq yumoristik kinoya: "Pakananing oshiq ko'ngli" (qissa).
4. Liro-romantik kinoya: "Bahor", "Bahorni quvib", "Kechirasiz, o'rtoq muallim", "Shaytonchalar ko'chasi" (hikoya va qissalar).

Albatta, yuqoridagi tasnif ham shartli ekanligini inobatga olmoq lozim. Chunki bir asarda kinoyaning bir necha ko'rinishlari uchrashi mumkin.³

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://diss.natlib.uz>
2. https://t.me/filolog_uz
3. Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Dis-2019/32-65.
4. Тошхужаева Ш. Еркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси. Дисс. Фарғона, 2017.
5. Шералиева М. Ҳозирги ўзбек насрида киноя (ижтимоий-психологик омиллари, поэтик тизимдаги ўрни). Дисс. Тошкент, 2017.

¹ Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Dis-2019/32-65. –B. 19.

² Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Dis-2019/32-65. –B. 20.

³ Shofiyev O. Erkin A'zam nasri badiiyati (kinoya va obraz). Dis-2019/32-65. –B. 28.